CLIL YONDASHUVI ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY-SUBYEKTIV POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Temirova Shoxsanam Komilovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti
1-kurs tayanch doktoranti

Ushbu maqolada CLIL (Content and Language Integrated Learning — fan va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish) yondashuvi asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy va pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda kasbiy-subyektiv pozitsiyaning mazmuni, uning bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil qaror qabul qilishi, pedagogik faoliyatga mas’uliyatli munosabati, tashabbuskorligi va kasbiy rivojlanishga intilishi bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. CLIL yondashuvining fan mazmuni va chet tilini o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-metodik kompetensiyalarni shakllantirish, mustaqil faoliyat va pedagogik refleksiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *CLIL, kasbiy-subyektiv pozitsiya, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, kasbiy kompetensiya, kasbiy-metodik tayyorgarlik, fanlararo integratsiya, pedagogik refleksiya, mustaqil faoliyat, kompetensiyaviy yondashuv, chet tili ta’limi.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-СУБЪЕКТНОЙ ПОЗИЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ПОДХОДА CLIL

В статье рассматриваются теоретические и педагогические возможности развития профессионально-субъектной позиции будущих учителей английского языка на основе подхода CLIL (Content and Language Integrated Learning — предметно-языковое интегрированное обучение). Анализируется сущность профессионально-субъектной позиции и её взаимосвязь со способностью будущего учителя самостоятельно принимать педагогические решения, проявлять ответственность, инициативность, рефлексивность и стремление к профессиональному развитию. Обосновываются возможности CLIL в формировании профессионально-методических компетенций будущих учителей посредством интеграции предметного содержания и иностранного языка, а также в развитии самостоятельной деятельности и педагогической рефлексии.

Ключевые слова: *CLIL, профессионально-субъектная позиция, будущий учитель английского языка, профессиональная компетентность, профессионально-методическая подготовка, межпредметная интеграция, педагогическая рефлексия, самостоятельная деятельность, компетентностный подход, обучение иностранному языку.*

DEVELOPING THE PROFESSIONAL-SUBJECTIVE POSITION OF FUTURE ENGLISH TEACHERS BASED ON THE CLIL APPROACH

This article examines the theoretical and pedagogical potential of developing the professional-subjective position of prospective English language teachers through the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach. The study analyzes the essence of the professional-subjective position and its relationship with prospective teachers’ ability to make independent pedagogical decisions, demonstrate responsibility, initiative, reflexivity, and commitment to professional development. Particular attention is paid to the potential of CLIL for developing professional and methodological competencies through the integration of subject content and foreign language learning, as well as for promoting independent learning and pedagogical reflection

Keywords: *CLIL, professional-subjective position, prospective English language teacher, professional competence, professional and methodological training, interdisciplinary integration, pedagogical reflection, independent learning, competency-based approach, foreign language education.*

Kirish. Bugungi kunda globallashuv, raqamli transformatsiya va ta’limning xalqaro integratsiyalashuvi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik talablarga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, kasbiy faoliyatini ongli ravishda tashkil eta oladigan hamda ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo‘ladigan mutaxassislar sifatida tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro ilmiy, ta’limiy va kasbiy kommunikatsiyadagi ahamiyati ortib borayotganligi

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini yangi mazmun va texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, jumladan, ta’limning ustuvorligi, ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi, ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilishi, shuningdek, ta’lim tizimining uzluksizligi va izchilligi belgilangan [1]. Mazkur talablar bo‘lajak o‘qituvchini faqat tayyor bilimlarni egallovchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, o‘z kasbiy faoliyatini loyihalash va baholashga qodir mutaxassis sifatida shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatida ham zamonaviy, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor berilgan.

UNESCOning 1966-yilda qabul qilingan “O‘qituvchilar maqomi to‘g‘risidagi tavsiyasi”da o‘qituvchilarni kasbga dastlabki tayyorlash va ularning keyingi kasbiy ta’limi, kasbiy mas’uliyati hamda samarali ta’lim jarayonini tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [5]. Ushbu xalqaro hujjat o‘qituvchilik kasbining professional xususiyatlarini rivojlantirish va pedagoglarni sifatli tayyorlash bo‘yicha muhim xalqaro me’yoriy asoslardan biri hisoblanadi. UNESCOning Sustainable Development Goal 4 (SDG 4) doirasidagi ta’lim strategiyasida esa sifatli ta’lim, umrbod ta’lim olish imkoniyatlari, zamonaviy ko‘nikmalarni rivojlantirish va malakali pedagoglarni tayyorlash o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar sifatida qaraladi [4; 6]. Xususan, SDG 4.4 yoshlar va kattalarning mehnat, munosib ish va tadbirkorlik uchun zarur bo‘lgan tegishli ko‘nikmalarini rivojlantirishni, 4.c esa malakali o‘qituvchilar sonini oshirishni ko‘zda tutadi [4].

CLIL asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talaba tayyor bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘quv faoliyatini rejalashtiruvchi, axborotni izlovchi va tahlil qiluvchi, muammoli vaziyatlarga yechim topuvchi, o‘z fikrini ingliz tilida asoslovchi hamda faoliyat natijasini baholovchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Bunday faoliyat shakllari bo‘lajak o‘qituvchining mustaqilligi, tashabbuskorligi, mas’uliyati, refleksivligi va kasbiy o‘zini anglashini rivojlantirish uchun pedagogik sharoit yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini CLIL yondashuvi asosida rivojlantirish muammosini tadqiq etishda, avvalo, “kasbiy subyektlik”, “kasbiy-subyektiv pozitsiya”, “o‘qituvchi agentligi” va “kasbiy kompetensiya” tushunchalarining mazmunini aniqlash hamda CLILning mazkur sifatlarni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zarur.

O‘qituvchining kasbiy subyektligi masalasi xorijiy pedagogika va psixologiyada turli nuqtayi nazarlardan tadqiq etilgan. Xususan, A. Bandura o‘zining “Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory” asarida insonning o‘z faoliyatini boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z imkoniyatlariga ishonish jarayonlarini ijtimoiy-kognitiv nazariya doirasida asoslaydi [7]. Mazkur nazariy yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik faoliyat subyekti sifatida shakllanishida mustaqillik va o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyatining muhimligini ko‘rsatadi. A. Banduraning “Self-Efficacy: The Exercise of Control” asarida esa shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi uning faoliyatni rejalashtirishi, murakkab vazifalarni bajarishga intilishi va natijaga erishishdagi qat’iyatiga ta’sir qilishi asoslangan [8]. Mazkur yondashuv kasbiy-subyektiv pozitsiyani faqat individual xususiyat emas, balki shaxs va kasbiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat natijasi sifatida qarash imkonini beradi. CLILning nazariy va metodik asoslari esa D. Coyle, P. Hood va D. Marsh tomonidan tizimli ravishda ishlab chiqilgan

O‘zbekistonda ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, kasbiy tayyorgarligi va subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, I.X. Ilmurodovning “The Essence and Ways of Developing the Teacher's Professional-Subjective Position” maqolasida o‘qituvchining kasbiy-subyektiv pozitsiyasi, uning mohiyati va rivojlantirish yo‘llari tahlil qilingan [13]. Tadqiqotda kasbiy-subyektiv pozitsiya o‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi subyektivlik va rivojlanish imkoniyatlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Z. Mamatqulova va K. Turgunovning “Features of Developing Future Teachers’ Professional Competence through Subject-Based Learning” nomli tadqiqotida fan asosidagi ta’lim orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi tahlil qilingan [14].

O‘zbekistonlik tadqiqotchilarning chet tillarni o‘qitish metodikasi, kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga oid ishlarida ham bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, talabaning mustaqil faoliyatini tashkil etish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan [15; 16].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi asosida rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik, psixologik va metodik yondashuvlar tashkil etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv tadqiqotning muhim metodologik negizlaridan biri bo‘lib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklamasdan, ularni real pedagogik vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyati bilan bog‘lash imkonini beradi. CLIL yondashuvi doirasida bo‘lajak o‘qituvchi fan mazmuni va ingliz tilini integratsiyalashgan holda o‘zlashtiradi, pedagogik topshiriqlarni bajaradi, muammoli vaziyatlarni tahlil qiladi va o‘z yechimlarini asoslaydi. Bu jarayon uning kasbiy-metodik kompetensiyasi bilan bir qatorda mustaqil va mas’uliyatli pedagogik faoliyat subyekti sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida har bir talabaning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, tajribasi va kasbiy rivojlanish istiqbollarini hisobga olish nazarda tutiladi. Bunda talaba tayyor bilimlarni qabul qiluvchi obyekt sifatida emas, balki o‘z ta’lim faoliyatini tashkil etuvchi va natijalarini baholovchi faol subyekt sifatida qaraladi. CLIL mashg‘ulotlarida individual va guruhli topshiriqlar, ijodiy vazifalar, loyihalar, taqdimotlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish talabaning shaxsiy faolligini kuchaytiradi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv tadqiqotda kasbiy-subyektiv pozitsiyani bevosita amaliy faoliyat jarayonida rivojlantirish imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik faoliyatga yaqinlashtirilgan topshiriqlarni bajarish orqali darsni rejalashtirish, o‘quv materiallarini tanlash, CLIL topshiriqlarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning faoliyatini tashkil etish, pedagogik muammolarga yechim topish va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini egallaydi. Natijada kasbiy-subyektiv pozitsiyaning muhim tarkibiy jihatlari — faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik va mas’uliyat rivojlanadi.

Tadqiqotning yana bir muhim metodologik asosi integrativ yondashuv bo‘lib, u fan mazmuni, ingliz tili, pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasini yagona ta’lim jarayonida o‘zaro bog‘lashni nazarda tutadi. CLILning mohiyatiga mos ravishda til va fan mazmunining integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchida turli bilim va ko‘nikmalarni kompleks ravishda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Bunday integratsiya pedagogik fikrlashni rivojlantirish, kasbiy vaziyatlarni kompleks tahlil qilish va o‘z faoliyatini turli nuqtayi nazardan baholash uchun sharoit yaratadi.

1-jadval. Kasbiy- subyektiv pozitsiya komponentlarining mazmuni, CLIL asosisda rivojlantirish vositalari va kutilgan natijalar

№	Kasbiy-subyektiv pozitsiya komponenti	Asosiy mazmuni	CLIL asosida rivojlantirish vositalari	Kutiladigan natija
1	Motivatsion-qadriyatli	Kasbga qiziqish, pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat, kasbiy maqsadni anglash	Muammoli vaziyatlar, kasbiy topshiriqlar, loyihalar	Kasbiy motivatsiya va mas’uliyatning ortishi
2	Kognitiv	Pedagogik, metodik va lingvistik bilimlarni integratsiyalash	Fan mazmuni + ingliz tili integratsiyasi, tahliliy topshiriqlar	Kasbiy bilimlarni kompleks qo‘llash qobiliyati
3	Faoliyatli	Mustaqil pedagogik faoliyat, tashabbuskorlik va qaror qabul qilish	Case-study, loyiha, mikroo‘qitish, guruhli ish	Mustaqil pedagogik faoliyatning rivojlanishi
4	Refleksiv	O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash	O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash	O‘z faoliyatini obyektiv baholash va takomillashtirish
5	Kommunikativ-subyekt	Hamkorlik, fikrni asoslash, pedagogik muloqot	Munozara, taqdimot, hamkorlikdagi CLIL topshiriqlari	Kommunikativ faollik va pedagogik tashabbusning ortishi

Natijalar. Tadqiqot natijalari CLIL yondashuvidan foydalanish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida kasbiy-subyektiv pozitsiya bo‘lajak o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini anglash, pedagogik jarayonda faol ishtirok etish, mustaqil qaror qabul qilish, tashabbus ko‘rsatish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va kasbiy rivojlanishga intilish kabi sifatlar majmuasi sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotda CLIL yondashuvining asosiy xususiyati — fan mazmuni va ingliz tilini o‘zaro integratsiyalash — bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan bir qatorda

uning faol subyekt sifatida shakllanishiga ham xizmat qilishi aniqlandi. CLIL mashg‘ulotlarida talabalar fan mazmunini ingliz tilida o‘zlashtirish, axborotni izlash va tahlil qilish, o‘z fikrini asoslash, muammoli vaziyatlarga yechim topish hamda natijalarni taqdim etish jarayonida faol ishtirok etadilar. Bu jarayon ularning mustaqilligi, mas’uliyati, kommunikativ faolligi va pedagogik tashabbusini kuchaytirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, CLIL yondashuvi asosida ta’limni tashkil etishda talabaning faol subyekt sifatidagi maqomini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi bunda tayyor bilimlarni beruvchi emas, balki talabaning mustaqil izlanishi, hamkorlik qilishi, muammolarni hal qilishi va refleksiya olib borishini tashkil etuvchi pedagogik fasilitator vazifasini bajaradi. Bunday ta’lim muhiti bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kasbiy o‘zini anglash va pedagogik faoliyatga mas’uliyatli munosabatni rivojlantiradi.

Xulosa. Olib borilgan nazariy tahlil va metodologik izlanishlar asosida CLIL yondashuvi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish uchun katta pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchidan faqat fan va til bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lish emas, balki mustaqil pedagogik qaror qabul qilish, ta’lim jarayonini loyihalash, o‘z faoliyatini tahlil qilish, hamkorlik qilish va uzluksiz kasbiy rivojlanishga intilish talab etiladi. Shu sababli bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida ularni faol pedagogik subyekt sifatida shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

CLIL yondashuvining asosiy afzalligi fan mazmuni va ingliz tilini integratsiyalashgan holda o‘qitish orqali talabaning bir vaqtning o‘zida lingvistik, kognitiv, kommunikativ va kasbiy faoliyatini tashkil etish imkoniyatidan iborat.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish uchun, avvalo, integrativ ta’lim muhitini yaratish; fan va ingliz tili mazmunini o‘zaro bog‘lash; talabaning mustaqil va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish; real pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlardan foydalanish; muntazam refleksiv faoliyatni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, CLIL yondashuvi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishda nafaqat til va fan mazmunini integratsiyalash vositasi, balki mustaqil, tashabbuskor, mas’uliyatli, refleksiv va kasbiy faoliyatga tayyor pedagog shaxsini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuvni oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlash mazmuniga izchil tatbiq etish ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni.

4. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4. Paris: UNESCO, 2016.

5. ILO/UNESCO. Recommendation concerning the Status of Teachers. Paris: UNESCO, 1966.

6. UNESCO. Education 2030: Sustainable Development Goal 4. Ensure inclusive and equitable quality education and promote lifelong learning opportunities for all. Paris: UNESCO, 2015.

7. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.

8. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: W.H. Freeman and Company, 1997. – 604 p.

9. Biesta G., Priestley M., Robinson S. The role of beliefs in teacher agency. Teachers and Teaching: Theory and Practice. 2015. Vol. 21, No. 6. P. 624–640.

10. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 184 p.

11. Mehisto P., Marsh D., Frigols M.J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. Oxford: Macmillan Education, 2008. – 238 p.

12. Cummins J. Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Clevedon: Multilingual Matters, 2000. – 307 p.

13. Ilmurodov I.X. The Essence and Ways of Developing the Teacher's Professional-Subjective Position. International Journal of Pedagogics. 2024. Vol. 4, Issue 11. P. 90–92.

14. Mamatqulova Z., Turgunov K. Features of Developing Future Teachers’ Professional Competence through Subject-Based Learning. Philology Matters. 2026. Vol. 56, No. 2.

15. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. New York: Teachers College Press, 2012. – 240 p.

16. Priestley M., Edwards R., Priestley A., Miller K. Teacher Agency in Curriculum Making: Agents of Change and Spaces for Manoeuvre. Curriculum Inquiry. 2012. Vol. 42, No. 2. P. 191–214.

17. Marsh D. Content and Language Integrated Learning (CLIL): A Development Trajectory. Córdoba: University of Córdoba, 2012.

18. Dalton-Puffer C. Discourse in Content and Language Integrated Learning (CLIL) Classrooms. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2007. – 336 p.